ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 72 sahifa,*
*12-avgust, 2026-yil.*



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education ........ 10
Alimov Jamshid Ravshanovich

Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari ........ 16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari ........ 20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi

O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin? ........ 26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva

Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida ........ 33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich

Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari ........ 40
Rahmatova Nasiba Sobirovna

Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi ........ 46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ........ 50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna

Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar ........ 55
Sobir Azizov

Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli ........ 57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich

Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar ........ 62
E. E. Jumayev

Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi ........ 65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna

# OLIY TA'LIM MUASSASALARI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA REGBI ELEMENTLARINI O'RGATISHNING TASHKILIY-METODIK ASOSLAR

E. E. Jumayev
Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari jarayonida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslari yoritilgan. Talaba-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, harakat faolligini oshirish hamda jismoniy sifatlarini rivojlantirishda regbi elementlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, regbining asosiy texnik elementlarini o'rgatish ketma-ketligi, mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari, maxsus mashqlarni tanlash va qo'llash metodikasi hamda talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda yuklamalarni me'yorlashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda regbi elementlarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bosqichma-bosqich joriy etish orqali talabalarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslangan. Maqolada ishlab chiqilgan tashkiliy-metodik yondashuvlardan oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarida foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, jismoniy tarbiya, regbi, regbi elementlari, tashkiliy-metodik asoslar, texnik tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, maxsus mashqlar, talaba-yoshlar, harakat faolligi.

**Abstract:** This article outlines the organizational and methodological foundations for teaching rugby elements during physical education classes in higher education institutions. It analyzes the pedagogical potential of using rugby elements to improve students' physical fitness, increase their physical activity levels, and develop their physical qualities. Attention is also given to the teaching sequence of key rugby techniques, the organization of training sessions, the methodology for selecting and applying specific exercises, and the standardization of training loads based on students' physical fitness levels. The study substantiates the potential for developing students' speed, agility, strength, endurance, and coordination by gradually integrating rugby elements into physical education sessions. Finally, the article offers practical recommendations for applying the developed organizational and methodological approaches in physical education classes and sports training within higher education institutions.

**Key words:** higher education, physical education, rugby, rugby elements, organizational-methodological foundations, technical training, physical qualities, special exercises, student youth, physical activity.

**Аннотация:** В статье изложены организационно-методические основы обучения элементам регби на занятиях по физическому воспитанию в высших учебных заведениях. Проанализирован педагогический потенциал использования элементов регби для улучшения физической подготовленности студентов, повышения уровня их двигательной активности и развития физических качеств. Особое внимание уделено последовательности обучения основным техническим приемам регби, организации тренировочных занятий, методике подбора и применения конкретных упражнений, а также нормированию тренировочных нагрузок с учетом уровня физической подготовленности студентов. Обоснована возможность развития у студентов быстроты, ловкости, силы, выносливости и координации посредством поэтапного внедрения элементов регби в учебный процесс по физическому воспитанию. В заключение представлены практические рекомендации по применению разработанных организационно-методических подходов на занятиях и спортивных тренировках в вузах.

**Ключевые слова:** высшее образование, физическое воспитание, регби, элементы регби, организационно-методические основы, техническая подготовка, физические качества, специальные упражнения, студенческая молодежь, двигательная активность.

## KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, ularning harakat faolligini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish jismoniy tarbiya ta'limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim mazmunini turli sport turlari elementlari bilan boyitish va talabalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirish ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlaridan foydalanish talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bilan bir qatorda, ularning jamoaviy hamkorlik, tezkor fikrlash, intizom va mas'uliyat kabi sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Regbi o'zining dinamikligi, harakatlarning xilma-xilligi va o'yin jarayonida turli jismoniy sifatlarning birgalikda namoyon bo'lishi bilan ajralib turadigan sport turlaridan biridir. Regbi o'yinida qisqa masofaga tez yugurish, to'xtash va qayta tezlanish, yo'nalishni keskin o'zgartirish, to'pni uzatish va qabul qilish, raqib harakatiga qarshi kurashish, muvozanatni saqlash hamda jamoaviy harakatlarni muvofiqlashtirish kabi faoliyatlar muntazam amalga oshiriladi. Mazkur harakatlarning majmuaviy xarakteri talabalarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya va tezkor reaksiya kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyat yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlaridan foydalanish, avvalo, talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Regbining murakkab texnik elementlarini to'g'ridan-to'g'ri o'rgatishdan ko'ra, ularni oddiy harakatlardan murakkab harakatlarga tomon bosqichma-bosqich shakllantirish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunda to'pni ushlash va uzatish, to'p bilan harakatlanish, yugurish texnikasi, yo'nalishni o'zgartirish, sherik bilan hamkorlikda harakatlanish kabi elementlarni dastlab soddalashtirilgan mashqlar orqali o'rgatish, keyinchalik ularni o'yin vaziyatlariga yaqinlashtirish samarali metodik yondashuv hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatish samaradorligi ko'p jihatdan mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish va metodik jihatdan ta'minlashga bog'liq. Xususan, mashqlarni tanlash va ketma-ketligini belgilash, mashg'ulot vaqtini oqilona taqsimlash, talabalarning jismoniy imkoniyatlariga mos yuklamalarni belgilash, individual va guruhli ishlash shakllaridan foydalanish hamda o'quv jarayonida o'yin metodini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mashg'ulot davomida texnik elementlarni o'rgatish bilan bir qatorda, talabalarda o'zaro hamkorlik, jamoada harakat qilish, tezkor qaror qabul qilish va sport intizomi kabi ijtimoiy-pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi sharoitda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarning qiziqishi va faol ishtirokini ta'minlash, mashg'ulotlarning amaliy yo'nalishini kuchaytirish hamda zamonaviy sport texnologiyalaridan foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Regbi elementlari asosida tashkil etiladigan mashqlar talabalarning tabiiy harakat ehtiyojlarini faollashtirib, mashg'ulot jarayonini qiziqarli va dinamik shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu sport turining jamoaviy xarakteri talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va guruhda samarali faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning samarali tashkiliy shakllari, metod va vositalarini aniqlash, ularni talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish hamda mashg'ulotlar mazmuniga izchil integratsiya qilish ilmiy-amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi.

Mazkur muammoning yechimi jismoniy tarbiya darslarining mazmunini boyitish, talabalarning harakat faolligini oshirish va ularning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun zarur metodik shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslarini ilmiy jihatdan yoritish, samarali o'qitish shakl va metodlarini aniqlash hamda ularni o'quv jarayonida qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini asoslash asosiy yo'nalish sifatida belgilandi.

Olib borilgan tahlillar asosida oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlaridan foydalanish talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, harakat faolligini oshirish va mashg'ulotlarning mazmuniy samaradorligini kuchaytirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Regbi

elementlarining harakatlarga boyligi, o'yin faoliyatining dinamik xarakteri hamda jamoaviy hamkorlikka asoslanganligi talabalarda bir qator jismoniy va ijtimoiy ko'nikmalarni kompleks ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Regbi elementlarini jismoniy tarbiya darslariga kiritishda ularni talabalarning yosh, individual va jismoniy tayyorgarlik xususiyatlariga moslashtirish muhim metodik shart hisoblanadi. O'rgatish jarayonini oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga va bosqichma-bosqichlik tamoyillari asosida tashkil etish texnik harakatlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Dastlab to'pni ushlash va uzatish, to'p bilan harakatlanish, yugurish, yo'nalishni o'zgartirish kabi sodda elementlarni shakllantirish, keyinchalik ularni o'yin vaziyatlariga yaqinlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, regbi elementlarini o'rgatishda o'yin, takroriy mashq, musobaqa, guruhli va individual mashg'ulot metodlaridan uyg'un foydalanish talabalarning mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi hamda ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mashqlar yuklamasini to'g'ri me'yorlashtirish, dam olish oralig'ini hisobga olish va mashg'ulotlarning xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etilishi o'quv jarayonining samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Regbi elementlari asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya va tezkor reaksiya kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, jamoada ishlash, o'zaro hamkorlik, intizom, mas'uliyat va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa jismoniy tarbiya darslarining nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish va ta'lim jarayoning amaliy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Regbi elementlarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga maqsadli, tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish mazkur yo'nalishdagi mashg'ulotlar samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. – М.: Спорт, 2008.
2. Курамшин Ю. Ф. Теория и методика физической культуры. – М.: Советский спорт, 2010.
3. Ашмарин Б. А. Теория и методика физического воспитания. – М.: Просвещение, 1990.
4. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. – Киев: Олимпийская литература, 2004.
5. Karimov R. R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 312 b.
6. Xo'jayev F. A. Sport mashg'ulotlari nazariyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019. – 276 b.
7. Davronov N. I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. – 200 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №8(2)**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.